

# Universitetning xodimlari uchun Kasb odobnomasi

## 1. Umumiy qoidalar

1. Ushbu "Universitet xodimlari uchun Kasb odobnomasi" (keyingi o'rinlarla "Kasb odobnomasi" deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son farmoni va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil 30 dekabrda 1201-sonli buyrug'i hamda Oliy ta'lim tizimida "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirish bo'yicha "yul xaritasi"da belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan bo'lib, kasb odobnomasining umumiy tamoyillari va xizmatdagi xulq-atvorning asosiy qoidalari yig'indisidan iborat.
2. Mazkur Kasb odobnomasi universitetning barcha xodimlari tatbiq etiladi.
3. Kasb odobnomasi universitet xodimlarining o'zaro munosabatlaridagi odob-axlok tamoyillariga, rioya etishlari shart bo'lgan xulq-atvor qoidalari xamda majburiyatlarni belgilab beradi.
4. Ishga qabul kilinayotgan har bir xodim Kasb odobnomasi bilan tanishib chiqishi hamda unga rioya kilishini o'z zimmasiga olgan xolda imzo qo'yishi shart.
5. Universitet xodimlari jamoat, davlat, nodavlat tashkilotlari, ta'lim va ilmiy muassasalar, tadbirkorlik sub'ektlari, ommaviy axborot vositalari hamda o'quvchi va talabalarning ota-onalari bilan o'zaro munosabatlarda Kasb odobnomasida nazarda tutilgan ko'rsatmalarga rioya etilishlari lozim.

## 2. Maqsad va vazifalar

6. Kasb odobnomasining maqsadi univrsitetda sog'lom ma'naviy va ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, uning nufuzi hamda obro'-e'tiborini asrab-avaylash, yuksak ma'naviy-axlokiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali va professional kadrlar tayyorlashga ko'maklashish, ta'lim muassasasining jamiyatdagi xamda ta'lim tizimidagi nufuzini yanada oshirishdir.
7. Kasb odobnomasining asosiy vazifalari:  
yuksak ma'naviy-axlokiy fazilatlariga ega, jamiyat, davlat va oila oldida o'z mas'uliyatini his etadigan, tashabbuskor, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashda universitet xodimlarining mas'uliyatini oshirish;  
universitet xodimlari orasida korrupsiyaga qarshi kurashishga, odob-axloqni buzishga qaratilgan xar qanday xatti-xarakatlarning oldini olish va boshka turli halokatli tahdidlardan himoya qilishga ko'maklashish;  
universitet xodimlarining ma'naviy immunitetini shakllantirish, saqlash, himoya qilish va boshqalar.

## III. Xodimlarning kasb odobiga oid umumiy koidalari

8. Universitetda hamjihatlik, o'zaro ishonch, hurmat bir-biriga g'amxo'rlik qilish hamda ahil-inoqlik xodimlarning o'zaro munosabatlaridagi muhim shartlardir.
9. Universitetda o'zaro munosabatlarning asosiy tamoyili - bir shaxsning huquqi boshqa shaxsning huquqini paymol qilmasligi lozim, jumladan, xodimning so'z erkinligi unga bировga tuhmat kilish, uni haqorat kilish, o'zaro munosabatlarda umume'tirof etilgan axlok qoidalari namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi bexayo so'zlardan foydalanish ta'qiqlanadi.
10. Xalqimizning ma'naviy merosini asrab avaylash maqsadida xodimlar bir-biriga nisbata hurmatsizlik qilishi, behayo so'zlar ishlatishi qat'iy ta'qiqlanadi hamda universitetda o'zaro "Siz" deb murojaat qilish odat tusiga kirishi lozim.
11. Universitet xodimlari turli tadbirlarda (majlislar, tantanali yig'ilishlar, amaliy uchrashuvlar, bayramlar va h.k) so'zga chiquvchilarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishi, maishiy tinchlikka rioya etishi shart.
12. Binolarga kirish joylarida tirbandlik yuzaga kelganda, erkaklar ayollarni o'zlaridan oldin o'tkazib yuborishlari lozim.
13. Binoga kirayotgan har bir xodim binolarga kirib-chiqishni nazorat

qilishi uchun tayinlangan mas'ul shaxs yoki navbatchiga o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ochiq holda ko'rsatishi shart.

14. Xodimlar ta'lim muassasasi hududida yo'lning o'ng tomonidan yurishlari va bir-biriga duch kelganda albatta salomlashishlari kerak.

15. Milliy va umumbashariy kadriyatlarga xos bo'lmagan yoki ta'lim muassasasining ichki muammolariga taaluqli masalalarni internet joylashtirish yoki undan turli maqsadlar yo'lida foydalanish ta'qiqlanadi.

16. Kompyuterlarda ta'lim muassasasiga tegishli bo'lmagan ma'lumotlarni, shuningdek, turli kinofilmlar, noqonuniy diniy ma'lumotlar, bexayo suratlar, milliy, irqiy, etnik, diniy adovatni targ'ib qiluvchi har qanday materiaplarni tayyorlash, saqlash, tarqatish va targ'ib etish qat'iyan man etiladi.

17. O'kuv mashg'ulotlariga, ishga va xodimlarning osoyishtaligiga xalaqit beradigan xatti-xarakterlar (radiopriyomnik, televizor, magnitofon va boshqa ovoz kuchaytirish vositalaridan maqsadsiz foydalanish) sodir etish ta'qiqlanadi.

18. Universitet xodimlari dars mashg'ulotlari va ishga belgilangan kun tartibiga ko'ra o'z vaqtida kelishlari hamda ketishlari shart.

19. Universitetda har qanday huquqbuzarlik sodir etish ta'qiqlanadi, shu jumladan, tuhmat qilish, haqorat qilish, xodimga ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotni tarqatish, tan jarohati yetkazish, fuqarolik muomalasidan chiqarilgan vositalarga oid munosabatlarga kirishish (giyohvand moddalar, psixotropik vositalar va hokazo), ichkilikbozlik, kashandalik, maishiy tinchlikka tajovuz qilish, janjallashish, qimor va tavakalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar o'ynash qat'iyan man etiladi.

#### **IV. Xodimlarning xizmatdagi xulk-atvorining asosiy tamoyillari va qoidalari**

**20. Xodimlar o'z kasbiy faoliyatini quyidagi prinsiplar asosida amalga oshirishlari kerak:**

- qonuniylik;
- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- vatanparvarlik va xizmat burchiga fidoiylilik;
- davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik;
- adolatlik, halollik va xolislik;
- manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik.

**21. Xodimlar quyidagilarga majbur:**

- xizmat vazifalarini bajarishda davlat prinsiplari na talablariga qat'iy rioya etish;
- o'z xizmat vazifalarini vijdonan, yuksak kasbiy darajada bajarish;
- yuqori davlat organlari va mansabdor shaxslarining vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlarini (topshiriqlarini) O'z vaqtida sifatli bajarish;
- o'z faoliyatini qonun hujjatlarida va ichki lokal hujjatlarda belgilangan lavozim vakolatlari doirasida amalga oshirish;
- o'z xizmat vazifalarini bajarishda biron-bir shaxslar, ryuhlar yoki tashkilotlarga yon bosmaslik va ustunlik bermaslik, ularning ta'siridan mustaqil bo'lish, fuqarolarning huquqlari, majburiyatlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olish, kamsitish holatlariga yo'l qo'ymaslik;
- o'z xizmat vazifalarini bajarishga to'sqinlik qiluvchi biror-bir shaxsiy, mulkiy va boshqa manfaatlarning ta'siri bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlariga barham berish;
- normativ-huquqiy hujjat va idoraviy hujjatlarda belgilangan cheklashlar va ta'qiqlarga rioya qilish, o'z xizmat vazifalarini og'ishmay bajarish;
- o'z xizmat faoliyatiga biror-bir ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga barham berish;
- O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlat xalqlarining urf-odatlarini va an'analarini hurmat qilish, turli etnik, ijtimoiy guruhlar va konfessiyalarning madaniy hamda boshqa xususiyatlarini hisobga olish, ijtimoiy barqarorlikka, millatlararo totuvlikka ko'maklashish;

- o'zlarining xizmat vazifalarini vijdonan bajarishda shubxa paydo qilishi mumkin bo'lgan xulq-atvordan o'zini tiyish, shuningdek, o'z obro'siga yoki universitetning nufuziga zarar yetkazishga qodir bo'lgan vaziyatlarga yo'l qo'ymaslik;

- xizmat mavqeidan universitetning mansabdor shaxslari, shuningdek, fuqarolar faoliyatiga noqonuniy ta'sir ko'rsatish uchun foydalanmaslik.

22. Siyosiy, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqlik, shuningdek, shaxsiy vajlar va boshqa sub'ektiv sabablar xodimlarning qonun hujjatlari talablarini va kasb odobnomasi qoidalarini buzishiga asos bo'la olmaydi.

23. Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, xodimlarga o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan biror-bir moddiy boyliklarni olish yoxud jismoniy yoki yuridik shaxslardan boshqacha naf ko'rish ta'qiqlanadi.

24. Xodimlar korrupsiya xolatlariga qarshi kurashishi va ularning profilaktikasiga faol ko'maklashishi shart. Xodimlar o'z rahbarlarini yoxud huquqni muhofaza qilish organlarini, ularni huquqbuzarliklar sodir etishga og'dirish maqsadida biror-bir shaxslarning qilgan murojaatlarining barcha holatlari to'g'risida, shuningdek, boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning o'zlariga ma'lum bo'lgan har qanday holatlari haqida xabarlor qilishi shart. Universitet rahbari shaxslar qonunchilikning buzilishi faktlari to'g'risida murojaat qilganligi munosabati bilan yoxud bildirilgan fikr va murojaatdagi tanqidi uchun, xuddi shuningdek, boshqacha shaklda tanqid qilganligi uchun ishdan bo'shatilishiga yoki boshqacha shaklda ta'qib qilinishiga yo'l qo'ymasligini ta'minlaydi.

25. Xodimlar kasbiy faoliyati davomida o'zlariga ma'lum bo'lgan axborotning saqlanishini va maxfiyligini ta'minlash yuzasidan barcha choralarni ko'rishlari shart, ularning oshkor etilganligi uchun ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

26. Rahbar o'ziga bo'ysunuvchi xodimlarga nisbatan yuqori professionalizm, soflik va adolatda o'rnak bo'lishi, universitetda yoxud uning tarkibiy bo'linmasida ma'naviy-psixologik muhit shakllanishiga ko'maklashishi lozim, u o'ziga bo'ysinuvchi xodimlardan ularning xizmat vazifalari doirasidan chiqadigan toshpiriqlarni bajarishini talab qilmasligi, shuningdek, qonunga xilof xatti-harakatlarni sodir etishga undamasligi kerak.

Rahbar kadrlarni qarindoshlik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo'yicha tanlash va joy-joyiga qo'yish holatlariga yo'l qo'ymasligi kerak. Guruhbozlik, maxalliychilik, favoritizm ko'rinishlari, shuningdek, o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning qa'iy ravishda oldini olishi lozim.

Rahbar:

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va ularni tartibga solish yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rishi;

korrupsiyaning oldini olish choralari ko'rishi;

xodimlarni samarali boshqarish, o'ziga ishonib topshirilgan mulkka va moliyaviy mablag'larga extiyotkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishi shart.

Rahbar o'ziga bo'ysunuvchi xodimlarning xizmatdagi xulq-atvor tamoyillari va qoidalarini buzayotgan xatti-harakatlariga (harakatsizligiga) yo'l qo'ymasligi uchun javob beradi.

27. Xodimlar o'zlarining xizmat vazifalariga bo'lgan munosabati bilan jamoada ishchanlik, o'zaro xayrixohlik va amaliy hamkorlik muhitini qaror toptirishga intilishlari kerak.

Xodimlar xushmuomila, iltifotli, odobli, e'tiborli, fuqarolar va hamkasblari bilan o'zaro munosabatda sabr-toqatli bo'lishi, ularni hurmat qilishi shart. Xodimlar o'ziga bo'ysinuvchilarga balki o'z hamkasblari, rahbarlari va fuqarolarga nisbatan qo'pollik qilmasligi, ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi, ularga asossiz psixologik va jismoniy ta'sir ko'rsatish holatlariga yo'l qo'ymasligi kerak.

Xizmat vazifalarini bajarish chog'ida ish shartlari va xizmat tadbirlarining shakliga bog'lik holda xodimlarning tashqi ko'rinishi (kiyinish madaniyatiga rioya qilishi) fuqarolarning universitetga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishiga yordam berishi, umumiy qabul qilingan ish uslubiga muvofiq bo'lishi, ular rasmiyligi, vazminligi va tartiblilik bilan boshqalardan ajralib turishi kerak.

28. Xodimlar xizmatdan tashqari vaqtda umumiy qabul qilingan odob-axloq qoidalariga rioya etishlari, gayri ijtimoiy xatti-harakatlarga yo'l qo'ymasligi kerak.

#### **V. Manfaatlarga to'qnashuvi**

29. Xodimlar o'z xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlarga to'qnashuviga sabab bo'ladigan shaxsiy manfaatdorlik holatlariga yul qo'ymasliklari kerak.

Manfaatlarga to'qnashuvi xodimlarning shaxsiy manfaatlari ularni o'z xizmat vazifalarini xolisona va beg'araz bajarishga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlarda paydo bo'ladi.

Xodimlarning shaxsiy manfaatdorligi ularning shaxsan o'zi yoki yaqin qarindoshlari, shuningdek ular yaqin yoki ishbilarmonlik munosabatlarida bo'ladigan boshqa shaxslar uchun har qanday naf ko'rish yoki afzalliklariga ega bo'lishini o'z ichiga oladi.

Manfaatlarga to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda xodimlar o'z rahbarini darhol xabarlor qilishi kerak. Manfaatlarga to'qnashuvi mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotni olgan rahbar uni tartibga keltirish bo'yicha o'z vaqtida choralar ko'rish shart.

30. Xodimlar o'zlarining xizmat vazifalarini talab darajasida bajarishga yoki ularga zarar yetkazish mumkin bo'lgan faoliyatni amalga oshirmasligi kerak.

Xodimlarning ish yuzasidan yuqori tashkilotlarga borishi universitet rektorini xabarlor qilgan holda amalga oshirilishi lozim. Xodimlar har qanday holatlarda ham o'z xizmat mavqeidan mumkin bo'lmagan shaxsiy foydani olishi mumkin emas.

31. Xodimlar lavozimga tayinlanayotganda va xizmat vazifalarini bajarayotganda o'zining xizmat vazifalarini zarur darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorligining mavjudligi yoki mavjud bo'lishi imkoniyati to'g'risida ma'lum qilishi shart.

32. Dars mashg'ulotlari vaqtida uyali aloqa vositalaridan foydalanish barcha uchun ta'qiqlanadi.

#### **VI. Universitetda kiyinish tartibi va madaniyati**

33. Erkak xodimlarning tashqi qiyofasi ozoda, pokiza, sochi tartibga solingan va soqoli olingan bo'lishi lozim.

34. Xodimlar xizmat xonalarida ustki kiyimda (plash, palto, kurtka kabilar) yurishlari mumkin emas.

35. Xodimlar ta'lim muassasasiga diniy ibodat libosida, sport kiyimi va poyafzalida kelishi, ularning odamlar diqqatini tortadigan, xususan, tanani shaffof ko'rsatib turadigan, yelka, ko'krak va qorin, tizzadan yuqori qismlari ochik qoladigan hamda haddan ziyod tor kiyimda, shuningdek, naushniklar, metall zanjirlar va boshqa taqinchoqlar, pirsingda, soqolini o'stirgan holda, paypoqsiz yoki oyoq ko'rinadigan kalta paypok kiyishi, ro'molini jag'idan bog'lagan tarzda ta'lim muassasasiga kelishi va shu holatda ta'lim muassasasida yurishi mumkin emas.

36. Ayol xodimlarga yorqin, me'yoridan ortiq pardoz (makiyaj) qilish tavsiya etilmaydi.

#### **VII. Xodimlarning o'zaro munosabatlari**

37. Xodimlarning o'zaro munosabatlarida - yagona jamoa o'zaro hurmat va e'tibor, do'stlik, xamjihatlik, halollik va adolat tamoyillariga amal qilishi lozim.

38. Xodimlar munosabatlarida inson qadr-qimmatiga hurmatsizlik qilish, shaxsiyatini kamsitish, o'zganing intellektual mulkini o'zlashtirib olish, qo'pollik, bexayo so'zlar ishlatish, mushtlashish, o'zgalarga ma'naviy, moddiy yoki jismoniy ziyon yetkazish qat'iy man etiladi.

#### **VIII. Xodimlarning Kasb odobnomasiga oid majburiyatlar**

39. Xodimlarning Kasb odobnomasiga oid majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- Kasb odobnomasiga rioya qilishda o'quvchi va talabalarga namuna bo'lish;
- ta'lim muassasasi manfaatlarga zid bo'lgan xatti-harakatlardan o'zlarini tiyish;
- biror-bir noxush voqea yoki xodisa ro'y bersa, zudlik bilan u hakida ma'muriyatga xabar berish;
- ta'lim muassasasi sha'ni va nufuziga dog' tushiradigan har qanday holatlarning oldini olish;
- ta'lim muassasasi to'g'risidagi axborotlardan uning manfaatlari va obro'siga ziyon yetkazish uchun yoki o'z manfaatlari yo'lida foydalanmaslik;
- dars jarayonida o'quvchi va talabalarga o'z kasbiga oid milliy an'analarimiz, urf-odat va qadriyatlarimizni targ'ib qilish;



- yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyoxvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli tahdidlar hamda biz uchun yot bo'lgan diniy va ekstremistik ta'sirlardan, tuban "ommaviy madaniyat" xurujlaridan ogoh etib borish;
- ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqishga ko'maklashish.

### **IX. Kasb odobnomasida man etiladigan holatlar**

40. Quyidagilar Kasb odobnomasida man etiladigan holatlar hisoblanadi:

- xodimlar, o'quvchi va talabalarning shaxsiyatini va qadr-qimmatini kamsitish, o'zgalarning shaxsiy va oilaviy muammolarini muhokama qilish;
- xodimlar, o'quvchi va talabalarning ustidan turli ig'vo, g'iybat, bo'htonlar uyushtirish;
- o'quvchilar va talabalar bilan o'z hamkasabalarining kasbiy va shaxsiy kamchiliklarini muhokama qilish;
- o'quvchilar va talabalarni asossiz o'quv mashg'ulotlaridan chiqarib yuborish;
- o'quv mashg'ulotlarida tijorat reklamasi o'tkazish;
- o'quv mashg'ulotlarida diniy tashviqot olib borish;
- o'quv mashg'ulotlariga mast, soch-soqol olinmagan va kiyinish tartibiga rioya qilmagan holda kelish;
- binolarda spirtli ichimliklar ichish va chekish kabilar qat'iy man etiladi.

### **X. Ma'muriyat va xodimlar o'rtasidagi Kasb odobnomasiga oid munosabatlar**

41. Ma'muriyat va xodimlar o'rtasidagi munosabatlar, o'zaro hurmat, ahillik, mehnatsevarlik, bag'rikenglik, insonparvarlik, g'amxo'rlik va adolat tamoyillariga asoslanadi.
42. Ma'muriyat va xodimlarning ish faoliyatiga doir masalalar bo'yicha hamkorlik qilishida bir tarafning boshqa tarafga tazyik o'tkazishiga yoki unga harakat qilishiga, shuningdek adolat tamoyillariga va ta'lim muassasasi manfaatlariga zid bo'lgan qarorlar tayyorlanishiga yo'l qo'ymaydi.
43. Lavozim darajalari teng bo'lgan xodimlar o'rtasidagi muammolarni ishchi guruh tuzish tartibda hal etish tavsiya etiladi. Lavozim darajalari teng bo'lgan xodimlarning ish jarayonidagi turli muammolarni o'z vakolatlari doirasida, ma'muriyatni jalb etmagan holda hal etishlari ma'qullanadi.
44. Jamoada biror bir masala bilan ma'muriyatga murojaat qilish belgilangan tartib asosida tashkil etiladi.
45. Xodimning ta'lim muassasasida ma'naviy-axlokiy muhitni yanada yaxshilash bo'yicha tashabbus va g'oyalari rag'batlantiriladi.
46. Ma'muriyat xodimlarning kasbiy, intellektual jihatdan rivojlanishlari uchun qulay ish joyi, zamonaviy kompyuterlar, internet tarmog'idan, kutubxona fondi va axborot-resurslaridan erkin foydalanish, shuningdek, xordik chiqarishlari, dam olishlari, jismonan chiniqishlari uchun barcha imtiyozlarni yaratib beradi.

### **XI. Kasb odobnomasini buzganlik uchun javobgarlik**

47. Xodimlar tomonidan Kasb odobnomasining buzilishi uni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo'lishi mumkin. Xodimlar tomonidan ushbu Kasb odobnomasida nazarda tutilgan koidalar buzilgan taqdirda ularga nisbatan ichki tartib qoidalarida keltirilgan holatlar bo'yicha tegishli choralar ko'riladi.
48. Xodimning xulk-atvori ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash maqsadida mazkur qoidalarga rioya etilmaganligi holatlari universitetdagi kasaba uyushma ko'mitasi, yoshlar ittifoqi, xotin-qizlar kengashi, murabbiylar kengashi yoki jamoatchilik kengashida muhokama qilish etilishi mumkin.
49. Xodimlar tomonidan Kasb odobnomasiga rioya etilishi tanlov, attestatsiyalar o'tkazishda, yuqori va boshqa lavozimlarga tayinlash uchun kadrlar zaxirasini shakllantirishda hisobga olinadi.
50. Xodimlar o'zlari yo'l qo'ygan qoida buzilishi, qoida buzilishining ko'rib chiqilishi jarayoni haqida axborotni olish va o'zini himoya qilish uchun dalillarni taqdim etish, shuningdek, universitetning qarorlari yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat kilish huquqiga ega.

### **XII. Yakuniy qoidalar**

51. Ushbu Kasb odobnomasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i hamda Adliya vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirliklarning takliflari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan bo'lib, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish Universitetning buyrug'i asosida amalga oshiriladi.